







# SMART TV Tezkor o'rnatish qo'llanmasi

- \* Ko'rsatilgan tasvir televizoringizdagidan farq qilishi mumkin.
- \* Kompyuter yoki uyali telefonda ko'rsatilgan tasvir OT (Operatsion tizim)ga bog'liq ravishda farq qilishi mumkin.
- \* Ilova belgisi holatlari dastur versiyasiga qarab platformada farq qilishi mumkin.

## Tarmoqni sozlash

- 1 Uy menyusiga kirish uchun masofadan boshqarish pultida  (**Uy**) tugmasini bosib. Masofadan boshqarish pultida  **G'ildirak (OK)** tugmasini bosish orqali  (**Parametrlar**) belgisini ajratib ko'rsating va tanlang.



- 2 Masofadan boshqarish pultida  **G'ildirak (OK)** tugmasini bosish orqali  (**Barcha parametrlar**) belgisini ajratib ko'rsating va tanlang.




- 3 **Tarmoq** → **Simli (Ethernet)** yoki **Wi-Fi**-ni tanlang.




- 4 Qurilma avtomatik ravishda mavjud tarmoqqa ulanishga harakat qiladi (avval simli ulanish). **Wi-Fi**-ni tanlaganingizda, mavjud tarmoqlar ro'yxati namoyish qilinadi. Foydalanmoqchi bo'lgan tarmoqni tanlang.




 belgisiga ega simsiz KN (Ruter) uchun xavfsizlik kalitini kiritishingiz kerak.




- 5 Agar ulanish tugatilsa, **"Internetga ulangan"** namoyish qilinadi.





Ulanishning holatini **Qo'shimcha Wi-Fi parametrlar**-da tekshirishingiz mumkin.



## Tarmoq muammolari nosozliklarini bartaraf qilish


- 1 Uy menyusiga kirish uchun masofadan boshqarish pultida  (**Uy**) tugmasini bosing. Masofadan boshqarish pultida  **G'ildirak (OK)** tugmasini bosish orqali  (**Parametrlar**) belgisini ajratib ko'rsating va tanlang.



- 2 Masofadan boshqarish pultida  **G'ildirak (OK)** tugmasini bosish orqali  (**Barcha parametrlar**) belgisini ajratib ko'rsating va tanlang.



- 3 **Tarmoq** → **Simli (Ethernet)** yoki **Wi-Fi** → **Qo'shimcha Wi-Fi parametrlar**-ni tanlang.



Tarmog'ingiz holatiga tegishli bo'lgan quyidagi ko'rsatmalarga amal qiling.

### Televizor yoki AP (Router)ni tekshiring.



X Televizor yonida paydo bo'lganda:

- 1 TV, Kirish nuqtasi AP (Router) ulanish holatini tekshiring.
- 2 TV, Kirish nuqtasini AP (Router) o'chiring va yoqing.
- 3 Agar siz statik IP dan foydalansangiz, to'g'ridan-to'g'ri IP ni kiriting.
- 4 Internet provayderi yoki AP (Router) ishlab chiqaruvchisiga murojaat qiling.

### AP (Router) tekshiring yoki Internet ta'minotchingiz bilan maslahatlashing.



X Shlyuz yonida paydo bo'lganda:

- 1 Kirish nuqtasi AP (Router) kabelini uring va 5 soniyadan keyin ulashga urinib ko'ring.
- 2 Kirish nuqtasini AP (Router) initializatsiya qiling (qayta tiklang).
- 3 Internet provayderi yoki AP (Router) ishlab chiqaruvchisiga kompaniyalariga murojaat qiling.



X DNS yonida paydo bo'lganda:

- 1 Kirish nuqtasi AP (Router) kabelini uring va 5 soniyadan keyin ulashga urinib ko'ring.
- 2 Kirish nuqtasini AP (Router) initializatsiya qiling (qayta tiklang).
- 3 TV/AP (Router) ni MAC manzili Internet ta'minotchingiz tomonidan ro'yxatga olinganligini tekshiring. (Tarmoq holati oynasining o'ng panelida ko'rsatilgan MAC manzili internet ta'minotchingiz tomonidan ro'yxatga olingan bo'lishi kerak.)
- 4 Rauteringizga so'nggi versiyali dastur o'rnatilganligiga ishonch hosil qilish uchun rauteringiz ishlab chiqaruvchisi veb sahifasidan tekshiring.

## SmartShare PC SW (SHK dastur ta'minoti) ni o'rnatish va sozlash

- 1 Shaxsiy Kompyuteringizga SmartShare PC SW (SHK dastur ta'minoti) dasturini o'rnatish.
- 2 **www.lg.com** saytiga o'ting. Keyin mintaqangizni tanlang.
- 3 **ПОДДЕРЖКА**-ni tanlang. Keyin rusumingizni tanlang.
- 4 Drayverlar va **Drivers & Software** yoki **ОБНОВЛЕНИЕ ПО**-ni tanlang. So'ng SmartShare PC SW ga o'ting.
- 5 O'rnatish tugallangach, siz dasturni ishga tushirishingiz mumkin.

### ESLATMA

- **SmartShare** xizmatidan faqat televizor va boshqa qurilmalar yagona rauter orqali ulangandagina foydalanish mumkin.

## Smartfonga SmartShare-ni ulash





- 1 Smartfoningizda Wi-Fi yoqilganligini tekshiring. **SmartShare**-dan foydalanish uchun ikkala qurilma bir xil mahalliy tarmoqda bo'lishi kerak.
- 2 Smartfoningizda tarkibni baham ko'rish uchun ilovani o'rnatish/ishlatish (U LG telefonlarida **LG TV Plus** deb ataladi).
- 3 Tarkib fayllarini boshqa qurilmalar bilan baham ko'rish uchun smartfoningizni yoqing.
- 4 **Qurilma ulagichi** ilovasini oching.  
🏠 (Uy) → **Qurilma ulagichi** → **Smartfon** → **TARKIBNI BAHAM KO'RISH**.
- 5 O'ynatmoqchi bo'lgan fayl turini tanlang (film, audio yoki fotosurat).
- 6 Televizorda o'ynatish uchun video, musiqa yoki fotosurat faylini tanlang.
- 7 Televizoringizda media faylni ko'rish va zavqlanish uchun uni o'ynating.

## Televizor Firmware (mikrodasturi)ni yangilash

\* Agar televizor zavoddan chiqarilgandan keyin ilk marta yoqilgan bo'lsa, uning initsializatsiyasi uchun bir necha daqiqa vaqt sarflanishi mumkin.

- 1 🏠 (Uy) → ⚙️ (Parametrlar) → ⚙️ (Barcha parametrlar) → ⚙️ Umumiy → Ushbu TV haqida → **YANGILANISHLARNI QIDIRISH**
- 2 Dasturiy ta'minot versiyasini tekshirishingiz va uni yangilashingiz mumkin.  
Agar "**Avtomatik yangilashlarga ruxsat berish**" ni tekshirsangiz, dasturiy ta'minotni avtomatik ravishda yangilashingiz mumkin.



## Wi-Fi Direct ni o'rnatish



🏠 (Uy) → ⚙️ (PARAMETRLAR) → ⓘ (BARCHA PARAMETRLAR) → 🌐 Tarmoq →

### Wi-Fi Direct

Agar mahalliy tarmoq mavjud bo'lmasa, Wi-Fi Direct-dan foydalangan holda ko'chma qurilmani to'g'ridan to'g'ri televizorga ulashingiz mumkin.

**SmartShare** orqali siz **Wi-Fi Direct** ga ulangan qurilmalarning fayllari yoki ekran tasvirlarini ulashingiz mumkin.

- 1 **Wi-Fi Direct** menyusini ochganingizda mavjud qurilmalar ro'yxati paydo bo'ladi.
- 2 Sizga ulanish so'rovi taklif qilinganda, **Hani** tanlang. **Wi-Fi Direct** televizoringizga ulanadi.

## Miracast-ni o'rnatish

**Miracast** portativ qurilmadagi video va ovozlarni Televizorga simsiz va xavfsiz ravishda yuborish imkonini beradi.



🏠 (Uy) / 📺 (Kiritish) → 📺 Screen Share

- 1 **Miracast** portativ qurilmangizda "YOQ"-ga o'rnatilishi kerak.
- 2 Televizor aniqlanganda, portativ qurilmangizda qurilmani tanlang. Ulanish tugatilganda qurilma ekrani televizor ekranida paydo bo'ladi.


\* Agar siz Ekranni baham ko'rish ilovasini ishga tushirgandan keyin Tinglash rejimini **YOQ**-ga o'rnatangiz, qurilmani Ekranni baham ko'rish ilovasini ishga tushirmasdan turib ulashingiz mumkin.

## WiDi (Simsiz display)ni o'rnatish

Intelning WiDi (Simsiz display) texnologiyasi simlar yoki internet bog'lanish yo'q bo'lgan paytda televizoringizda akslantirilgan yoki qo'sh monitorga namoyishlari uchun oson va tezkor ulanish imkonini beradi. Siz qulay o'tirishingiz va televizoringizda sevimli kinolaringiz, videolaringiz, fotosuratlaringiz, onlayn tomoshalar va boshqa namoyishlardan to'liq HD formatida ajoyib tasvir va ovoz sifati bilan bahramand bo'lishingiz mumkin.

🏠 (Uy) / 📺 (Kiritish) → 📺 Screen Share

- 1 Intel's WiDi **Yoq** holatiga qo'yib sozlang. Noutbukingizni AP (Router) kirish nuqtasiga ulang. (Kirish nuqtasiz bu funksiyadan foydalanishingiz mumkin, ammo kirish nuqtasiga ulanish tavsiya qilinadi.) Noutbukingiz Intel WiDi dasturini ishga tushiradi.
- 2 U mavjud WiDi ni qo'llab-quvvatlovchi LG webOS televizorlarini aniqlaydi. Ro'yxatdan o'zingiz xohlagan televizorni va so'ngra Connect (Ulanish)ni tanlang. Ekranda ko'rsatilgan PIN raqamini noutbukingizdagi kiritish maydoniga (a) kiriting va keyin Continue (Davom ettirish)ni tanlang.



Noutbuk ekrani

- 3 Noutbuk ekrani TV ekranida paydo bo'ladi. Simsiz muhit ekran displeyiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Agar ulanish yaxshi bo'lmasa, Intel WiDi ulanishi yo'qolishi mumkin.

\* LG televizor ro'yxatdan o'tkazilishi shart emas.

\* Intel WiDi haqida batafsil ma'lumot uchun <http://intel.com/go/widi> sahifasiga tashrif buyuring.

\* Magic masofadan boshqarish pultidan foydalangan holda ShKni ham boshqarishingiz mumkin.

Agar sizda qandaydir muammolar yuzaga kelsa, LG kompaniyasining iste'molchilarga xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qiling.